Journal of PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH

PEDAGOGIK VA FILOLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI



QABUL FANLARI

- Pedagogik fanlar
- Filologik fanlar



innopublication.com

PEDAGOGIK VA FILOLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI-ilmiy-uslubiy jurnali
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

Ushbu to'plamda **" PEDAGOGIK VA FILOLOGIK TADQIQOTLAR JURNALI"** ilmiy-uslubiy jurnalining 2026-yil 9-soniga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Bosh muharrir: JUMAYEVA SANOBAR ABSAATOVNA - Nizomiy nomidagi O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti, Pedagogika kafedrasi dotsenti, Phd

Jurnal quyidagi sohalarda maqolalar qabul qiladi:
Pedagogika fanlari
Filologika fanlari

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga **DOI** unikal raqami biriktirilib, Google Scholar, Zenodo, Open Aire, Sindex xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

Jurnal materiallaridan professor-o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollej o'quvchilari, maktab o'qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to'plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar,ma'lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to'g'riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar

"INNOVATIVE PUBLICATION" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI

JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

THE SIGNIFICANCE OF AL-FARABI'S WORK "THE ART OF POETRY"

Amirova Nodira Ravshan qizi

Student, 4th-year, Group 405, Uzbek Language and Literature Program, Faculty of Philology, Nizami Tashkent State Pedagogical University.

Abstract

This article analyzes the work "The Art of Poetry" by the great thinker Abu Nasr Farabi. It highlights the importance of the work in literary studies, its contribution to the development of poetic thinking, and its role in the modern literary process. Farabi interprets poetry not only as an aesthetic phenomenon but also as an essential tool influencing human thinking and education.

Keywords

Farabi, art of poetry, poetics, literary studies, aesthetics

Forobiyning "She'r san'ati" asarining ahamiyati

Amirova Nodira Ravshan qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti. Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs 405-guruh talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Forobiyning hayoti va ijodi hamda "She'r san'ati" asari tahlil qilinadi. Asarning adabiyotshunoslikdagi o'rni, poetik tafakkur rivojiga qo'shgan hissasi va zamonaviy adabiy jarayondagi ahamiyati yoritiladi. Forobiy she'riyatni nafaqat estetik hodisa, balki inson tafakkuri va tarbiyasiga ta'sir etuvchi muhim vosita sifatida talqin etadi.

Kalit so'zlar: Forobiy, she'r san'ati, poetika, adabiyotshunoslik, estetik tafakkur

Аннотация

В данной статье анализируется труд великого мыслителя Абу Насра Фараби «Искусство поэзии». Освещается значение произведения в литературоведении,

его вклад в развитие поэтического мышления и роль в современном литературном процессе. Фараби рассматривает поэзию не только как эстетическое явление, но и как важное средство формирования человеческого мышления и воспитания.

Ключевые слова: Фараби, поэтическое искусство, поэтика, литературоведение, эстетика

Kirish

Sharq uyg‘onish davrining buyuk allomalaridan biri Abu Nasr Forobiy ilm-fan va madaniyat taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. Abu Nasr Forobiy (to‘liq ismi: Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uzlug‘ Tarxon Forobiy) 873-yilda O‘tror (Forob) shahrida tug‘ilgan. Bu hudud hozirgi Qozog‘iston hududiga to‘g‘ri keladi. U turkiy xalqlarga mansub bo‘lib, yoshligidan ilm-fanga qiziqqan.Forobiy dastlab ona yurtida ta’lim olgan, keyinchalik ilm izlab Buxoro, Samarqand, Bag‘dod kabi ilm markazlariga borgan. Ayniqsa Bag‘doddagi faoliyati uning dunyoqarashi shakllanishida muhim o‘rin tutgan. U yerda mantiq, falsafa, matematika, musiqa, tibbiyot va tilshunoslikni chuqur o‘rgangan.Forobiy ko‘plab tillarni bilgan. Rivoyatlarga ko‘ra, u 70 dan ortiq tilni tushungan. U umrining oxirgi yillarini Damashq shahrida o‘tkazgan va 950-yilda vafot etgan.



Forobiy Sharq uyg‘onish davrining buyuk qomusiy olimi hisoblanadi. U falsafa, mantiq, musiqa, siyosat, axloq va adabiyotga oid ko‘plab asarlar yaratgan. Sharqda uni “Muallim as-soniy” (“Ikkinchi muallim”) deb atashgan. Bu nom unga Arastudan keyingi buyuk faylasuf sifatida berilgan.

Mashhur asarlari:

“Fozil odamlar shahri”

“Baxt-saodatga erishuv haqida”

“Ilmlarning kelib chiqishi”

“Musiqa haqida katta kitob”

“She’r san’ati”

“Aql ma’nolari haqida”

Forobiy she’riyat va musiqa san’atiga katta e’tibor bergan. “She’r san’ati” asarida she’rning inson ruhiyatiga ta’siri, badiiy tasvir va ijodkor mahorati haqida fikr bildiradi. U san’at insonni ma’naviy kamolotga yetaklaydi deb hisoblagan.Uning “She’r san’ati” asari adabiyot nazariyasining muhim manbalaridan biri bo‘lib, unda she’riyatning mohiyati, vazifasi va inson hayotidagi o‘rni chuqur tahlil etiladi. Ushbu asar Sharq va G‘arb poetik tafakkurining rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan.

Asosiy qism

Forobiy “She’r san’ati” asarida she’riyatni inson ruhiyatiga ta’sir etuvchi kuch sifatida talqin qiladi. U she’rni tasviriy fikrlash mahsuli deb biladi va unda obrazlilik, ohangdorlik hamda ma’no uyg‘unligiga alohida e’tibor qaratadi. Mutafakkir she’riyatni mantiqiy tafakkur bilan bog‘lab, uni insonni ma’naviy kamolotga yetaklovchi vosita sifatida ko‘rsatadi. Forobiy nazarida she’r inson qalbiga tez va chuqur ta’sir etuvchi san’at turidir. Forobiy fikricha, she’riyat boshqa xalqlarga qaraganda arablar orasida o‘ziga xos rivojlangan. Arab baytlarida oxirgi so‘zlar va ularning o‘lchoviga katta e’tibor beriladi. She’rning har bir bo‘lagi (vazn tartibi) bir-biriga hamohang bo‘lishi lozim. Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy nuqtalarni ko‘rsatadi:

1. She’r unsurlari: She’r ma’lum bir ritm (zarb), turoq, sabab va vatarlardan tashkil topadi.

2. Taqlid mohiyati: She’r biror narsaga taqlid qilib to‘qilgan so‘zlardan iborat bo‘lishi kerak.

3. Musiqa va she’r: Ba’zi xalqlarda kuy avval yaratilib, so‘ng unga mos she’r bog‘lanadi. Agar ohang va vazn mos kelmasa, she’rning tabiati buziladi.

4. Yunon she’riyati: Forobiy Xomerning 'Illiada' asarini misol keltirib, yunon she’riyatida erkin vazn(geksametr) ishlatilishini qayd etadi.

“She’r san’ati” asari Sharq poetikasining shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Forobiy ushbu asar orqali Aristotelning poetika haqidagi qarashlarini rivojlantiradi va ularni yangi falsafiy asos bilan boyitadi.Asarda she’riyatning turlari, uning vazifalari va estetik mezonlari ilmiy asosda izohlangan. Bu esa keyingi davr adabiyotshunoslari uchun muhim nazariy poydevor bo‘lib xizmat qilgan.

Bugungi kunda ham Forobiyning “She’r san’ati” asari o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Zamonaviy adabiyotshunoslikda poetik tafakkur, obraz yaratish va badiiy ifoda vositalarini o‘rganishda ushbu asar muhim manba hisoblanadi.Shuningdek, Forobiyning she’riyatga bergan ta’rifi bugungi ijodkorlar uchun ham muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Uning qarashlari adabiy ijodning ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyatini chuqur anglashga yordam beradi.Forobiyning ta’kidlashicha, agar so‘zlar biror narsani anglatsa-yu, lekin vaznga tushirilmagan bo‘lsa, ular 'she’riy so‘z-mulohaza' deb ataladi, lekin to‘laqonli she’r hisoblanmaydi. She’r bo‘lishi uchunu albatta muayyan bo‘laklarga (vaznga) bo‘linishi shart. Bu qonun-qoidalarga rioya qilish she’riyatning eng afzal va namunaviy bo‘lishiga xizmat qiladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Forobiyning “She’r san’ati” asari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Ushbu asar adabiyot nazariyasini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi va poetik tafakkur shakllanishiga katta

ta’sir ko‘rsatadi.Abu Nasr Forobiyning she’r san’ati haqidagi ta’limoti bugungi adabiyotshunoslik uchun ham poydevor vazifasini o‘taydi. Uning she’r tuzilishi va musiqiyligi haqidagi qoidalari so‘z san’atining qat’iy qonuniyatlariga asoslanganligini isbotlaydi.Forobiy jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan mutafakkirdir. Uning asarlari Yevropa olimlariga ham kuchli ta’sir ko‘rsatgan. Bugungi kunda ham uning falsafiy va ma’rifiy qarashlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Forobiy, Abu Nasr. She’r san’ati.
2. Aristotel. Poetika.
3. Qayumov A. Sharq mutafakkirlari merosi.
4. Karimov N. Adabiyot nazariyasi asoslari.
5. Rasulov A. Badiiy tafakkur rivoji.
6. Islamonline.uz kutubxonasi materiallari.

JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

QOZOQBOY YO‘LDOSHEV’S LITERARY-CRITICAL VIEWS AND HIS PLACE IN CONTEMPORARY UZBEK LITERARY STUDIES

Jalilova Shahnozabonu Farhod qizi

Gulistan State University Doctoral Researcher in Literary Studies, Specialty 10.00.02.

Email: shahnozasoatova@gmail.com Tel: +998995362904

Abstract

This article analyzes the literary-critical views of Qozoqboy Yoldoshev, a prominent figure in contemporary Uzbek literary studies and criticism. It examines the scholar's perspective on the literary process, his criteria for evaluating literary works, and his insights regarding the author's personality, artistic craftsmanship, and the expression of national and universal values in literature. Furthermore, the article identifies the key directions of his critical work based on books such as “Yoniq so‘z” (Burning Word) and “So‘z yolqini” (The Flame of the Word). It also analyzes the distinctive characteristics of Yoldoshev’s criticism—specifically the principles of grasping the essence of a literary text, revealing a work's aesthetic value, evaluating an author's individual style, consistently monitoring the literary process, and understanding national literature in the context of global literary standards.

Keywords

Literary criticism, literary studies, literary process, literary work, aesthetic criterion, creator, artistic mastery, national literature, literary thought.

QOZOQBOY YO‘LDOSHEV ADABIY-TANQIDIY QARASHLARI VA ZAMONAVIY O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI O‘RNI

Jalilova Shahnozabonu Farhod qizi, Guliston davlat universiteti

10.00.02-adabiyotshunoslik tayanch-doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligi va adabiy tanqidining yirik vakillaridan biri Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy qarashlari

tahlil qilinadi. Olimning adabiy jarayonga munosabati, badiiy asarni baholash mezonlari, ijodkor shaxsiyati, badiiy mahorat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning adabiyotdagi ifodasi haqidagi fikrlari o‘rganiladi. Shuningdek, uning “Yoniq so‘z”, “So‘z yolqini” kabi asarlari asosida adabiy tanqidchilik faoliyatining asosiy yo‘-nalishlari aniqlanadi. Maqolada Qozoqboy Yo‘ldoshev tanqidchiligiga xos xususiyatlar — badiiy matn mohiyatini anglash, asarning estetik qiymatini ochish, ijodkorning individual uslubini baholash, adabiy jarayonni muntazam kuzatish va milliy adabiyotni jahon adabiyoti mezonlari bilan mushtarak holda anglash tamoyillari tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Adabiy tanqid, adabiyotshunoslik, adabiy jarayon, badiiy asar, estetik mezon, ijodkor, badiiy mahorat, milliy adabiyot, adabiy tafakkur.

Kirish. Adabiy tanqid badiiy adabiyotning rivojlanish jarayonini kuzatish, yangi asarlarning estetik mohiyatini ochib berish, ijodkorlarning badiiy izlanishlariga baho berish va adabiy jarayondagi muhim tendensiyalarni aniqlashda alohida ahamiyatga ega. Tanqidchi badiiy asarni shunchaki mazmun jihatidan sharhlovchi emas, balki uning es-tetik mohiyati, poetik qurilishi va insoniy mazmunini ochishga intiluvchi tadqiqotchidir. Zamonaviy o‘zbek adabiy tanqidida Qozoqboy Yo‘ldoshevning faoliyati ana shu jihat-dan e’tiborlidir. Tadqiqotlarda uning 1990-yillarning boshlaridan boshlab adabiy-tanqi-diy maqolalari bilan matbuotda faol qatnashgani va adabiy-badiiy jarayonni muntazam kuzatib borgani qayd etiladi. Uning maqola, taqriz, so‘zboshi, so‘ngso‘z, suhbat va bahs-lardagi fikrlari adabiy jarayonning turli masalalarini qamrab oladi. Qozoqboy Yo‘l-doshevning tanqidchilik faoliyatini o‘rganish zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligida badiiy asarga munosabatning yangi tamoyillarini aniqlash imkonini beradi.

Qozoqboy Yo‘ldoshev adabiy-tanqidiy faoliyatining asosiy yo‘nalishlari. Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy merosi ko‘lam jihatidan rang-barangdir. Uning “Yonib so‘z” kitobi 2006-yilda nashr etilgan bo‘lsa, “So‘z yolqini” 2018-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda chop etilgan. “So‘z yolqini” 504 sahifadan iborat bo‘lib, unda o‘zbek kitobxoniga tanish ko‘plab ijodkorlarning asarlari tahlil qilingan.

Olimning tanqidchilik faoliyatini shartli ravishda quyidagi yo‘nalishlarga ajratish mumkin:

1. she’riy asarlar tahlili;
2. nasriy asarlar tahlili;
3. ijodkor shaxsiyati va individual uslubini o‘rganish;
4. zamonaviy adabiy jarayonni kuzatish;
5. adabiyotning milliy va umuminsoniy mohiyatini tadqiq etish;
6. adabiyotshunoslik va adabiy tanqid munosabatlarini yoritish.

Tanqidchining badiiy asarga munosabati. Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy qarashlarida badiiy asarning mohiyatini anglash masalasi markaziy o‘rinlardan birini egallaydi. Tanqidchi uchun asarning mavzusi yoki syujetini bayon qilishning o‘zi yetarli emas. Asarning qanday badiiy vositalar yordamida yaratilgani, muallif qanday estetik maqsadni ko‘zlagani va asar kitobxonda qanday badiiy-taassurot uyg‘otishi ham muhimdir. Shu sababli uning tahlillarida badiiy asarning ifoda uslubi, g‘oyaviy mazmuni, obrazlar tizimi va estetik xususiyatlariga alohida e’tibor beriladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham Qozoqboy Yo‘ldoshning adabiy-tanqidiy merosida aynan badiiy asarni tushunish, ifoda uslubi, g‘oyaviylik va obrazlar tizimini tahlil qilishga oid qarashlar salmoqli o‘rin egallashi qayd etilgan. Demak, uning tanqidchilik faoliyatida “asar nima haqida?” degan savol bilan bir qatorda “asar qanday yaratilgan?” va “uning badiiy qiymatini belgilovchi jihatlar nimalardan iborat?” kabi savollar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijodkor shaxsiyati va individual uslub masalasi. Qozoqboy Yo‘ldoshev tanqidchiligida ijodkorning individual uslubini aniqlashga alohida e’tibor beriladi. Har bir chinakam ijodkor badiiy voqelikni o‘ziga xos tarzda ko‘radi va ifodalaydi. Shu sababli adib yoki shoir ijodini baholashda umumiy qoliplardan foydalanish badiiy hodisaning o‘ziga xosligini yo‘qqa chiqarishi mumkin. Olimning adabiy-tanqidiy maqolalarida turli ijodkorlarning poetik olami alohida kuzatiladi. “So‘z yolqini”

haqidagi ma’lumotlarda ham unda bir qator taniqli ijodkorlarning yaratgan asarlari tadqiq etilgani va ularning badiiy mohiyati ochib berilgani qayd etiladi. Masalan, olimning she’riyatga oid tahlillarida Hamid Olimjon, Mirtemir, Shavkat Rahmon, Usmon Azim, Halima Xudoyberdiyeva kabi ijodkorlarning poetik dunyosi alohida o‘rganilganligi ko‘rsatiladi. Bunday tahlillarda ijodkorning faqat mavzu tanlashi emas, balki so‘zdan foydalanish mahorati, obraz yaratish qobiliyati, ruhiy holatni ifodalashi va individual poetik uslubi ham tahlil obyekti sifatida namoyon bo‘ladi.

Milliy adabiyot va jahoniy mezon. Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy qarashlarida milliy adabiy hodisalarni kengroq adabiy-estetik mezonlar asosida anglash tamoyili ham ko‘zga tashlanadi. Tadqiqotchilar uning qarashlarini milliy hodisaga jahoniy o‘lchovlar bilan yondashish namunasi sifatida tavsiflaydilar. Bunday yondashuv milliy adabiyotning o‘ziga xosligini inkor etmaydi. Aksincha, milliy adabiyotdagi badiiy hodisalarni umumjahon adabiy jarayoni kontekstida anglash imkonini beradi. Bu jihatdan Qozoqboy Yo‘ldoshevning tanqidchilik faoliyatida ikki muhim tamoyil uyg‘unlashadi: milliylik va umuminsoniylik. Badiiy asarning milliy ruhini aniqlash bilan birga uning insoniyatga xos ma’naviy-axloqiy muammolarni ifodalash darajasi ham e’tiborga olinadi.

Adabiy jarayonni kuzatish va tanqidchining vazifasi. Adabiy tanqidning muhim vazifalaridan biri — adabiy jarayonni muntazam kuzatib borishdir. Qozoqboy Yo‘ldoshevning faoliyatida ham zamonaviy adabiy jarayonni kuzatish muhim o‘rin egallaydi. Uning tanqidiy maqolalarida turli davrlarda yaratilgan she’riy va nasriy asarlar tahlil qilinadi. Masalan, olimning “O‘zgarishlar doimiyligi” maqolasida 2012-yil she’riyati tahlil qilinib, zamonaviy she’riyatni anglashda davr kishisining hissiy dunyosini hisobga olish zarurligiga e’tibor qaratiladi. Bu jihat tanqidchining adabiy jarayondan uzilib qolmasligini ko‘rsatadi. U adabiyotni faqat tarixiy meros sifatida emas, balki doimiy ravishda yangilanib boradigan badiiy hodisa sifatida ko‘radi.

Adabiy tanqid va estetik did. Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy

qarashlarida tanqidning tarbiyaviy-estetik vazifasi ham muhim o‘rin tutadi. Tanqidchi badiiy asarga baho berish orqali kitobxonning estetik qarashlari va adabiy didining shakllanishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotlarda adabiy tanqidning jamiyat va adabiyot hodisalarini baholash, xalqning ma’naviy saviyasini yuksaltirish va estetik didni tarbiyalashdagi ahamiyati qayd etiladi. Shu nuqtayi nazardan Qozoqboy Yo‘ldoshev tanqidchiligini faqat akademik faoliyat sifatida emas, balki adabiy jarayon ishtirokchilari — ijodkor, tanqidchi va kitobxon o‘rtasidagi ilmiy-estetik muloqot shakli sifatida ham baholash mumkin.

Qozoqboy Yo‘ldoshev tanqidchiligida madaniy-tarixiy yondashuv. Olimning adabiy-tanqidiy qarashlarida asarni uning yaratilish muhiti bilan bog‘liq holda o‘rganish ham muhim metodologik xususiyatlardan biridir. 2025-yilda e’lon qilingan tadqiqotda Qozoqboy Yo‘ldoshning ayrim ijodkorlar ijodini o‘rganishda madaniy-tarixiy yondashuvdan foydalangani maxsus tahlil qilingan. Bunday yondashuvda asarning yuzaga kelishiga ta’sir qilgan tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar hisobga olinadi. Biroq asarni faqat tarixiy hujjat sifatida talqin qilish emas, balki uning badiiy-estetik mohiyatini ochish asosiy maqsad bo‘lib qoladi. Shu jihatdan Qozoqboy Yo‘ldoshev tanqidchiligida metod va badiiy hodisa o‘rtasidagi uyg‘unlikni ko‘rish mumkin: tahlil usuli asarning tabiati va tadqiqot maqsadidan kelib chiqadi.

Zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligidagi o‘rni. Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy faoliyati zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligining rivojlanish jarayonlari bilan chambarchas bog‘liq. Uning tadqiqotlarida adabiyotshunoslik, adabiy tanqid va adabiy ta’lim masalalari o‘zaro aloqador holda namoyon bo‘ladi. Tadqiqotchilar Qozoqboy Yo‘ldosh faoliyatini adabiyotshunoslik, metodika, tilshunoslik va pedagogika sohalaridagi izlanishlarni qamrab oluvchi ko‘p qirrali ilmiy faoliyat sifatida ko‘rsatadilar.

Uning “So‘z yolqini” kabi asarlarining katta hajmi va ko‘plab ijodkorlar ijodiga murojaat qilishi olimning adabiy jarayonni keng ko‘lamda kuzatganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Qozoqboy Yo‘ldoshevning tanqidchilik faoliyati bugungi kunda ham davom etayotganini uning yangi adabiy-tanqidiy maqolalari va suhbatlari ko‘rsatadi. Masalan, uning zamonaviy adabiy jarayon va adabiyotshunoslik masalalariga bag‘ishlangan materiallari 2025-yilda ham e’lon qilingan.

Xulosa. Qozoqboy Yo‘ldoshevning adabiy-tanqidiy qarashlarini o‘rganish uning zamonaviy o‘zbek adabiyotshunosligidagi ilmiy faoliyatini yaxlit holda anglash imkonini beradi. Olimning tanqidchilik faoliyatida badiiy asarni chuqur tahlil qilish, uning estetik mohiyatini ochish, ijodkorning individual uslubini aniqlash, adabiy jarayonni muntazam kuzatish va milliy adabiyot hodisalariga kengroq adabiy-estetik mezonlar asosida yondashish tamoyillari yetakchilik qiladi. Qozoqboy Yo‘ldoshevning “Yonib so‘z” va “So‘z yolqini” kabi asarlari uning adabiy-tanqidiy qarashlarini tizimli o‘rganish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Olim tanqidchiligida badiiy asar mazmun va shakl birligida, ijodkor shaxsiyati va davr konteksti bilan aloqadorlikda o‘rganiladi. Shu bilan birga, milliy adabiyotning o‘ziga xosligini saqlagan holda uni jahoniy adabiy-estetik mezonlar asosida anglashga intilish ham kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yo‘ldosh Q. Yonib so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.

2. Yo‘ldosh Q. So‘z yolqini. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 504 b.

3. Yo‘ldosh Q., Yo‘ldosh M. Badiiy tahlil asoslari. – Toshkent: Kamalak, 2016.

4. Abdialimova M. S. Qozoqboy Yo‘ldosh adabiy-estetik qarashlarining o‘ziga xosligi. – 2023.

5. Yo‘ldasheva M., Abdullayeva M. Sinchining badiiy tahlil mahsuli (Qozoqboy Yo‘ldoshning adabiy-tanqidiy qarashlari). – 2025.

6. O‘zgarishlar doimiyligi (2012-yil she’riyati tahlili). – Qozoqboy Yo‘ldoshning adabiy-tanqidiy materiallari.

JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

DISCOURSE COMPETENCE IN THE SYSTEM OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE: STRUCTURE, COMPONENTS AND CRITERIA OF FORMATION

Nabiyeva Zarnigor Muminjon qizi
[Doctoral Student], Namangan State Institute of Foreign Languages
ORCID: [0009-0003-9340-7255]

Abstract

The article examines discourse competence as one of the key components of foreign-language communicative competence in teaching Russian as a foreign language. Based on an analysis of Russian and international studies, the article clarifies the concept of "discourse competence," compares different structural models, and identifies its most stable components: cohesion and coherence of utterances, compositional and logical organization, genre and stylistic appropriateness, pragmatic orientation, and the ability to take the communicative situation into account. Particular attention is paid to studies in the field of Russian as a foreign language, in which discourse competence is viewed not only as the ability to produce a coherent text but also as the ability to select appropriate linguistic means depending on the purpose, addressee, situation, and genre. The analysis of contemporary empirical studies shows that the development of this competence can be assessed through specific observable indicators, including logical text organization, global and local coherence, use of cohesive devices, topic development, interaction with the addressee, and adherence to genre conventions. Based on the approaches reviewed, the article proposes a system of criteria for assessing the discourse competence of Russian as a foreign language learner.

Keywords

discourse competence, Russian as a foreign language, communicative competence, discourse, cohesion, coherence, speech genre, pragmatic competence, Russian as a foreign language, formation criteria.

JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

ДИСКУРСИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ В СИСТЕМЕ ОБУЧЕНИЯ РКИ: СТРУКТУРА, КОМПОНЕНТЫ И КРИТЕРИИ СФОРМИРОВАННОСТИ

Набиева Зарнигор Муминжон кизи
[Докторант], Наманганский государственный институт иностранных языков
ORCID: [0009- 0003-9340-7255]
E-mail: [znabiyeva822@gmail.com] | Тел: [998930609904]

Аннотация. В статье рассматривается дискурсивная компетенция как один из ключевых компонентов иноязычной коммуникативной компетенции при обучении русскому языку как иностранному. На основе анализа отечественных и зарубежных исследований уточняется содержание понятия «дискурсивная компетенция», сопоставляются различные модели её структуры и определяются наиболее устойчивые компоненты: связность и целостность высказывания, композиционно-логическая организация, жанрово-стилистическая уместность, прагматическая направленность и способность учитывать коммуникативную ситуацию. Особое внимание уделяется исследованиям в области РКИ, в которых дискурсивная компетенция рассматривается не только как способность создавать связный текст, но и как умение выбирать соответствующие речевые средства в зависимости от цели, адресата, ситуации и жанра. Анализ современных эмпирических работ показывает, что сформированность данной компетенции может оцениваться по конкретным наблюдаемым показателям: логичности построения текста, глобальной и локальной когерентности, использованию средств связи, развитию темы, взаимодействию с адресатом и соблюдению жанровых норм. На основании рассмотренных подходов предлагается система критериев оценки дискурсивной компетенции учащихся РКИ.

Ключевые слова: дискурсивная компетенция, русский язык как иностранный, коммуникативная компетенция, дискурс, связность, когерентность, речевой жанр, прагматическая компетенция, РКИ, критерии сформированности.

ВВЕДЕНИЕ

Современное обучение русскому языку как иностранному постепенно смещает акцент с усвоения отдельных языковых единиц на способность учащегося использовать их в реальном речевом взаимодействии. Учащийся может правильно образовать грамматическую форму или подобрать необходимое слово, однако это ещё не означает, что он способен построить полноценное высказывание, соответствующее ситуации общения. Именно на этом уровне возникает проблема дискурсивной компетенции. В классической модели коммуникативной компетенции Canale и Swain дискурсивная компетенция связана со способностью объединять отдельные высказывания в смысловое целое и обеспечивать отношения связности между ними [1]. В дальнейшем содержание данного понятия было расширено: дискурсивная организация стала рассматриваться вместе с прагматическими, социокультурными и стратегическими аспектами общения. В модели Celce-Murcia, Dörnyei и Thurrell дискурсивная компетенция занимает самостоятельное место наряду с лингвистической, социокультурной, акциональной и стратегической компетенциями [2]. Подобное понимание особенно важно для РКИ, поскольку иностранный учащийся должен овладеть не только русской грамматикой и лексикой, но и способами организации русскоязычного высказывания. Для более точного определения структуры дискурсивной компетенции существенное значение имеет модель Bachman и Palmer, в которой языковая способность рассматривается через взаимосвязь организационной и прагматической компетенций, а также стратегических ресурсов учащегося [3]. В таком подходе успешное высказывание зависит не только от правильности языкового оформления, но и от способности соотнести языковые средства с конкретной коммуникативной задачей. Для РКИ это особенно заметно при переходе от учебных упражнений к естественной коммуникации: учащемуся необходимо

понимать, когда следует использовать нейтральную конструкцию, когда допустима разговорная форма, как выразить просьбу, несогласие, аргумент, оценку или объяснение без нарушения коммуникативных норм.

Российская методическая традиция предлагает более конкретное рассмотрение дискурсивной компетенции применительно к обучению РКИ. Л. Б. Волкова связывает данное понятие с триадой «дискурс — дискурсивное мышление — дискурсивная компетенция» и выделяет в её структуре формально-логический, функционально-стилистический и жанрово-текстовый компоненты [4]. Такое членение имеет практическое значение: учащийся должен не просто соединять предложения, а уметь логически развивать мысль, выбирать соответствующий стиль и строить текст с учетом его жанровой принадлежности. В исследованиях И. М. Вознесенской, И. А. Гончар, Д. В. Колесовой, Т. И. Поповой, К. А. Роговой и О. В. Хорохординой дискурсивная компетенция иностранного учащегося описывается через способность создавать и понимать типовые устные и письменные тексты в различных сферах деятельности; для уровня B2 авторы выделяют, в частности, личную, учебную, профессиональную, общественную и другие сферы общения [5]. Это показывает, что содержание дискурсивной компетенции непосредственно связано с системой речевых жанров и коммуникативных ситуаций.

МЕТОДЫ

В исследовании использовался теоретико-аналитический метод, позволивший сопоставить определения дискурсивной компетенции, представленные в зарубежной и российской лингводидактике. Были рассмотрены публикации по теории коммуникативной компетенции, методике преподавания иностранных языков, обучению РКИ и оцениванию иноязычной речи. Дополнительно анализировались эмпирические исследования, в которых дискурсивная компетенция операционализируется через конкретные параметры

письменной и устной речи. Особое внимание уделялось работам, опубликованным в международных рецензируемых журналах, включая исследования, представленные в Scopus, а также российским публикациям по методике РКИ. Сопоставительный анализ позволил выявить повторяющиеся признаки дискурсивной компетенции и отделить собственно языковую правильность от способности организовывать дискурс. При определении критериев сформированности учитывались наблюдаемые характеристики речевого продукта: развитие темы, глобальная и локальная связность, использование логических средств связи, учёт адресата, структура текста, жанровая организация и соответствие коммуникативной цели.

РЕЗУЛЬТАТЫ

Анализ научных подходов показывает, что дискурсивную компетенцию целесообразно понимать как комплексную способность учащегося создавать, воспринимать и интерпретировать устные и письменные высказывания, организованные в соответствии с коммуникативной целью, ситуацией, жанром и нормами изучаемого языка. При этом она не сводится к механическому использованию союзов, местоимений или других средств когезии. Современные исследования письменной речи демонстрируют, что учащийся может достаточно активно использовать формальные средства связи, но одновременно испытывать трудности с построением общей смысловой структуры текста. В исследовании Y. Wang и Q. Xie дискурсивная компетенция была операционализирована через пять компонентов: развитие темы, глобальную когерентность, локальную когерентность, логические связки и взаимодействие автора с читателем [6]. В исследовании 108 студенческих работ авторы обнаружили, что учащиеся сравнительно лучше использовали логические связки, тогда как более серьезные затруднения наблюдались при развитии темы, формировании глобальной когерентности и взаимодействии с адресатом [7]. Следовательно, оценивание

дискурсивной компетенции только по количеству связующих элементов может дать неполную картину. Исследование письменных работ учащихся начального этапа обучения английскому языку как иностранному также показало, что глобальная когерентность может оставаться общей проблемой даже тогда, когда отдельные предложения построены грамматически корректно [8]. Этот результат важен и для РКИ: правильность предложения не гарантирует правильности дискурса. Иными словами, учащийся может знать русские грамматические модели, но испытывать затруднения при переходе от одного смыслового блока к другому, при формулировании основной мысли или при завершении текста. Для обучения РКИ особое значение имеет жанровый аспект. Н. А. Костюк показывает, что даже упражнение на соответствие может быть преобразовано таким образом, чтобы работать не только на усвоение языковой формы, но и на формально-логический компонент дискурсивной компетенции [9]. Следовательно, формирование ДК может происходить непосредственно в рамках традиционных языковых упражнений, если они ориентированы на установление смысловых отношений между элементами текста. При этом речевой материал должен постепенно переходить от отдельных предложений к микротексту, затем к развернутому высказыванию и полноценному речевому жанру. Современные исследования также подтверждают необходимость включения прагматического и интеракционального компонентов. В исследовании P. Pun, S. Tan и X. Li, посвящённом письменным исследовательским текстам школьников, в качестве параметров дискурсивной компетенции рассматривались организация информационного потока, выражение позиции автора, взаимодействие с читателем и владение структурой дискурса [10]. Полученные результаты показали неодинаковую степень сформированности этих параметров: например, элементы взаимодействия с читателем встречались в ограниченном объеме, а точность отдельных компонентов существенно различалась. Для РКИ это означает, что

учащегося необходимо обучать не только «правильно писать», но и учитывать, для кого создается текст и какую реакцию он должен вызвать. В устной речи критерии дискурсивной компетенции также выходят за пределы грамматической правильности. Исследования устного взаимодействия показывают значимость структуры ответа, логического развития содержания, управления темой и способности поддерживать коммуникативное взаимодействие. В частности, исследования оценивания устных дебатов рассматривают дискурсивную компетенцию через способность учащихся участвовать в определенном речевом жанре, соблюдать его организационные и интеракциональные требования [11]. Более новые исследования L2-устной речи дополнительно связывают дискурсивную адекватность с когерентностью и особенностями языкового оформления повествования [12].

Таким образом, на основе сопоставления рассмотренных работ критерии сформированности дискурсивной компетенции в РКИ можно представить через пять взаимосвязанных групп показателей. Первый критерий — содержательно-логический: учащийся способен сформулировать тему, основную мысль, последовательно развивать содержание и завершать высказывание. Второй — когезивно-когерентный: предложения и смысловые части текста связаны между собой, а переходы между ними понятны адресату. Третий — жанрово-стилистический: учащийся выбирает языковые средства в соответствии с типом текста, сферой общения и коммуникативной ситуацией. Четвертый — прагматический: высказывание соответствует цели общения, предполагаемому адресату и социальным условиям коммуникации. Пятый — интеракционально-стратегический: учащийся способен поддерживать речевое взаимодействие, уточнять информацию, переформулировать мысль и компенсировать возникающие коммуникативные затруднения.

ОБСУЖДЕНИЕ

Полученные результаты позволяют уточнить место дискурсивной компетенции в системе обучения РКИ. Ее нельзя рассматривать как дополнительный навык, формируемый после освоения грамматики и лексики. Скорее, она возникает на пересечении языкового знания и его функционального использования. Учащийся должен понимать, почему определенная языковая форма используется именно в данной ситуации и как изменение контекста может изменить выбор языковых средств. Поэтому формирование ДК требует работы одновременно с текстом, речевым жанром, ситуацией и коммуникативной задачей. Особенно значимым для РКИ является сочетание формально-логического и жанрово-текстового компонентов, выделяемых Л. Б. Волковой [4], с более современными параметрами оценивания, такими как развитие темы, глобальная когерентность и взаимодействие с адресатом [6; 7]. В результате дискурсивная компетенция предстает не как один изолированный навык, а как система взаимосвязанных умений. Например, письменный рассказ может быть грамматически корректным, но недостаточно дискурсивно сформированным, если события расположены бессистемно, основная тема теряется, а причинно-следственные отношения между действиями не выражены. Аналогичная ситуация возможна в устной речи: учащийся говорит достаточно много, но его ответ остается фрагментарным и плохо ориентированным на собеседника. Для определения уровня сформированности ДК целесообразно использовать не только традиционную оценку количества ошибок. Более информативным является анализ конкретного речевого продукта по нескольким параметрам. Высокий уровень характеризуется самостоятельным построением целостного высказывания, последовательным развитием темы, адекватным использованием средств связи, соблюдением жанровых норм и учетом адресата. Средний уровень проявляется в относительно последовательном построении текста при наличии отдельных нарушений логики, когерентности или стилистической уместности.

Низкий уровень характеризуется фрагментарностью, трудностями в развитии темы, преобладанием отдельных предложений над цельным текстом и слабой ориентацией на коммуникативную ситуацию. Такая система согласуется с современными диагностическими подходами, в которых дискурсивные умения оцениваются по наблюдаемым параметрам, а не только по общей языковой правильности [7; 8]. Для методики РКИ это имеет вполне конкретное следствие: задания должны требовать от учащегося не воспроизведения готового текста, а его самостоятельной организации. Эффективными могут быть задания на продолжение текста, восстановление логической последовательности, преобразование текста из одного жанра в другой, аргументацию, написание сообщения определенному адресату, участие в диалоге или обсуждении. Важно и то, что такие задания должны усложняться постепенно. Сначала учащийся устанавливает связь между двумя-тремя высказываниями, затем организует микротекст, после чего переходит к полноценному монологу или письменному жанру. Такой путь позволяет связать языковую форму с реальным речевым действием.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведенный анализ показывает, что дискурсивная компетенция в обучении РКИ представляет собой многокомпонентное образование, включающее способность логически и связно организовывать содержание, использовать средства когезии и когерентности, соблюдать жанрово-стилистические нормы, учитывать коммуникативную ситуацию и адресата, а также применять стратегии поддержания речевого взаимодействия. Российские исследования РКИ акцентируют формально-логическую, функционально-стилистическую и жанрово-текстовую стороны ДК, тогда как современные международные исследования дополняют эту модель параметрами развития темы, глобальной и локальной когерентности, взаимодействия автора с адресатом и структурной

организации дискурса. Поэтому диагностика сформированности дискурсивной компетенции должна быть комплексной. Оцениваться должен не отдельный набор грамматических или лексических единиц, а способность учащегося создавать целостное и коммуникативно уместное высказывание. Для РКИ особенно перспективным является объединение жанрового, текстового, прагматического и когнитивно-стратегического подходов, поскольку именно их взаимодействие позволяет перейти от формального владения русским языком к полноценному речевому действию.

ЛИТЕРАТУРА

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.

2. Celce-Murcia, M., Dörnyei, Z., & Thurrell, S. (1995). Communicative competence: A pedagogically motivated model with content specifications. Issues in Applied Linguistics, 6(2), 5–35.

3. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (1996). Language testing in practice: Designing and developing useful language tests. Oxford University Press.

4. Волкова, Л. Б. (2018). Дискурсивная компетенция: содержание, структура и основы формирования. Вопросы когнитивной лингвистики, 1, 5–11.

5. Вознесенская, И. М., Гончар, И. А., Колесова, Д. В., Попова, Т. И., Рогова, К. А., & Хорохордина, О. В. (2019). Рамки дискурсивной компетенции: ТРКИ-2. В Русское слово в многоязычном мире: Материалы XIV Конгресса МАПРЯЛ (с. 940–945). МАПРЯЛ.

6. Wang, Y., & Xie, Q. (2022). Diagnosing EFL undergraduates' discourse competence in academic writing. Assessing Writing, 53, 100641. https://doi.org/10.1016/j.asw.2022.100641

7. Wang, Y., & Xie, Q. (2022). Diagnostic assessment of novice EFL learners' discourse competence in academic writing: A case study. Language Testing in Asia, 12, Article 47. https://doi.org/10.1186/s40468-022-00197-y

8. Pavičić Takač, V. (2012). Exploring some aspects of foreign language learners' discourse competence. Journal of Foreign Language Teaching, 9, 1–12.

9. Костюк, Н. А. (2022). Расширение диапазона возможностей упражнения на соответствие как один из факторов формирования дискурсивной компетенции на уроках РКИ. Филологические науки. Вопросы теории и практики, 15(1). https://doi.org/10.30853/phil20220009

10. Pun, J., Tan, S., & Li, X. (2024). Discourse competence in Hong Kong secondary students' disciplinary research writing. Assessing Writing, 61, 100872. https://doi.org/10.1016/j.asw.2024.100872

11. García-Balsas, M., & López-Ferrero, C. (2022). Oral debates in Spanish as an additional language classroom: Assessment criteria to improve student performance. Porta Linguarum, 39. https://doi.org/10.30827/portalin.vi39.23533

12. Lin, Y.-L., Tsai, Y.-C., & Hsieh, C.-Y. C. (2024). Discourse competence across band scores: An analysis of speaking performance in the General English Proficiency Test. International Review of Applied Linguistics in Language Teaching, 62(4), 1719–1746. https://doi.org/10.1515/iral-2022-0154

13. Hymes, D. (1972). On communicative competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), Sociolinguistics (pp. 269–293). Penguin.

14. Bachman, L. F. (1990). Fundamental considerations in language testing. Oxford University Press.

15. Bachman, L. F., & Palmer, A. S. (2010). Language assessment in practice. Oxford University Press.

16. Van Ek, J. A. (1986). Objectives for foreign language learning. Council of Europe.

17. Halliday, M. A. K., & Hasan, R. (1976). Cohesion in English. Longman.

18. Hyland, K. (2008). Disciplinary discourses: Social interactions in academic writing. University of Michigan Press.

19. Soloviova, N., Salata, I., & Sorochan, L. (2023). Formation of discourse competence through literary discourse interpretation in foreign language teaching. Philological Studies: Scientific Bulletin of Kryvyi Rih State Pedagogical University, 25. https://doi.org/10.31812/filstd.v25i.8151

20. Kimura, D. (2024). Discourse, competence, and second language acquisition research. In The Routledge handbook of second language acquisition and discourse (pp. 353–366). Routledge.

21. Jiang, T., & Yang, Y. (2026). Linguistic correlates of coherence in L2 narrative speech: A mixed-methods approach. Applied Linguistics. https://doi.org/10.1093/applin/amag008

22. García-Balsas, M., & López-Ferrero, C. (2022). Oral debates in Spanish as an additional language classroom: Assessment criteria to improve student performance. Porta Linguarum, 39.

JOURNAL OF
PEDAGOGICAL AND PHILOLOGICAL RESEARCH
VOLUME-1, ISSUE-9, 2026

TABLE OF CONTENTS | СОДЕРЖАНИЕ

1.	**THE SIGNIFICANCE OF AL-FARABI'S WORK "THE ART OF POETRY"** Amirova Nodira	**3-7**
2.	**QOZOQBOY YO'LDOSHEV'S LITERARY-CRITICAL VIEWS AND HIS PLACE IN CONTEMPORARY UZBEK LITERARY STUDIES** Jalilova Shahnozabonu	**8-13**
3.	**DISCOURSE COMPETENCE IN THE SYSTEM OF TEACHING RUSSIAN AS A FOREIGN LANGUAGE: STRUCTURE, COMPONENTS AND CRITERIA OF FORMATION** Nabiyeva Zarnigor	**14-25**